



KIRIB KELAYOTGAN QURBON HAYITI MUBORAK BO'LSIN!

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati
aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 30-may № 5 (1551)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

MEHR-OQIBAT VA EZGULIK AYYOMI

Qurbon hayitini bizlarga bayram qilib bergan Alloh taolaga hamdu sanolar, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga durudu salovatlar bo'lsin!

Qurbon hayiti – musulmonlarning shod-xurramlik, ko'ngil olish, mehr-oqibat, xayr-saxovat ko'rsatish, bir-birlari bilan diydorlashuv bayramlaridir. Uni shariat talablariga muvofiq, yig'i-sig'isiz, xursandchilik bilan, xush kayfiyatda o'tkazish musulmonga yarashqli va maqtagan amallardandir.

(Davomi 3-betda).



BUGUNGI SONDA

MUROJAAT

Barqaror
taraqqiyotga tahdid 2

HAYIT

Mehr-oqibat va
ezgulik ayyomi 3

INVESTITSIYA

Eksport
salohiyatini oshiradi 4

BARQARORLIK

Sifat
va natija 6

"DOLZARB 30 KUN"

Faol ishtirok etaylik! 7

SO'RAGAN EDINGIZ

Ta'til puli
qanday hisoblanadi? 9

SALOMATLIK

Jazirama
issiqdan saqlaning! 10

HIKMAT

"Bu nima?" 12

ILM-FAN VA ISHLAB CHIQRISH

Yurtimizda fan-ta'lim-ishlab chiqarishda uzviy xalqa faoliyat yuritishi uchun barcha zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqin hamkorlikdagi aloqalari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 13-martdagi 128-son qaroriga muvofiq sanoat muammolarini hal etishga respublika ilmiy salohiyatini keng jalb qilish belgilangan.

Tasdiqlangan jadval doirasida "O'zmetkombinat" AJga oliy ta'lim va ilmiy muassasalar olimlaridan iborat delegatsiya kombinat bosh mutaxassislari bilan uchrashish uchun tashrif buyurdi.

(Davomi 2-betda).



KORRUPSIYA – BARQAROR TARAQQIYOTGA TAHDID

Aziz do'stlar! Qadrli hamkasblar!

Korrupsiya har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi. Jamiyatning ma'naviy axloqini yemiradi, qonun ustuvorligini kuchsizlantiradi, fuqarolar huquq va erkinliklarining jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Uning domiga ilingan amaldor shaxsiy manfaatini davlat manfaatidan ustun qo'yishi natijasida, mamlakat taraqqiyotiga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazadi, chet ellik sheriklarda ham ishonchsizlik uyg'otadi va ularni hamkorlikdan qaytaradi.

Korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, mazkur illatlarga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolar va albatta kombinatimiz ishchi-xodimlari ham mas'uldirlar. Bizning eng muhim vazifalarimizdan biri xodimlarning korrupsiyaga qarshi huquqiy ongini oshirish hamda unga nisbatan murosasiz kurashishdir.

Kombinat va uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqimizda

kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish afzal degan naql bor. Zero kasalni yashirsang, isitmasi oshkor etadi. Shunday ekan korrupsiya keltirib chiqaradigan oqibatlarni kutib turmasdan bu illatga oid jinoyat va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga chek qo'yish maqsadga muvofiq.

Korxona rahbar va mutaxassislari endilikda iqtisodiy samaradorlik, mablag'larning o'rinni va maqsadli sarflanishi, bunda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun shaxsan javobgar ekanligini tushunib yetishlari lozim. Xorijiy hamkorlarimiz bilan aloqalarni mustahkamlash, xalqaro mavqe va nufuzimizni oshirish mas'uliyati ham shuni taqozo etmoqda.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatda bo'lish kombinat tizimida faoliyat olib borayotgan har bir rahbardan tortib oddiy ishchi-xodimning kundalik hayot tarziga aylanishi kerak. Halollik, vatanparvarlik va shaxsiy mas'uliyatni o'z faoliyatining asosiy qoidasiga aylantirgan holda, berilgan barcha vazifa va topshiriqlarni vijdonan, xolis va yuksak darajada amalga oshirish hayot tarzimizga aylanishi lozim.

Qaerdaki halollik va poklik ustuvor bo'lsa, o'sha joyga qut-baraka yog'iladi, kutilgan nati-

jalarga erishiladi. Buning aksi o'laroq, harom-xarish aralashgan joydan baraka ko'tariladi. Ba'zan bir nechta nopok xodim tufayli butun tizim yomon otliqqa chiqadi. Afsuski, odamzodning tabiatida falokatga yetaklovchi nafs atalmish illat mavjud. Aynan nafs, mol-dunyo ishtiyoqi insonni tamagirlikka undaydi. Shunday bo'lmasligi uchun kombinatda mehnat qilayotgan har bir rahbar va muhandis-texnik xodimni o'z vazifalarini adolatli va halol, xolis bajarishga chaqirib qolaman.

Aziz metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyatning o'zaro jipsligini talab etadi. Zero, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar fuqarolar, jumladan Sizlar tomondan ham faollik ko'rsatilsagina, ko'zlangan natijani berishi mumkin. Bu illatga qarshi kurashishda hech kim o'zini chetga olmasligi shart. Sababi, birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashsak, ijobiy natijaga erishish osonlashadi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish har bir vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning burchidir!

Dilshod AXMEDOV,

**“O'zmetkombinat” AJ Boshqaruv raiisi –
Bosh direktor.**

ILM-FAN VA ISHLAB CHIQRISH



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ular kombinatimiz bilan yaqindan tanishib muammolarni joyiga chiqqan holda o'rgandilar va o'zaro fikr almashdilar, kombinat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish imkoniyatlarini muhokama qildilar.

Tashrif avvalida mehmonlar “O'zmetkombinat” AJ tarixi muzeyiga tashrif buyurib, kombinatning qurilish tarixi, keyingi rivojlaniishi va bugungi kundagi joriy faoliyati bilan tanishdilar.

Shundan so'ng ular Ferroqotishmalar ishlab chiqarish, Elektrda po'lat eritish, Zoldir prokatlash bo'linmalariga tashrif buyurishdi. Olimlar bu yerda qo'llanilayot-



gan zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, ilmiy yondashuvni talab qiladigan bir qator ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdilar.

Olimlar “O'zmetkombinat” AJda ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishganlaridan so'ng kombinatning rahbar va bosh mutaxassislari ishtirokida davra suhbat bo'lib o'tdi. Muhokama davomida ilmiy va loyihaviy yondashuv talab qilinadigan aniq ishlab chiqarish vazifalari ko'rib chiqildi.

Bu tadbir ilm-fan va sanoat o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim qadam bo'ldi. Bu shubhasiz mamlakat metallurgiya sanoatining innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

MEHR-OQIBAT VA EZGULIK AYYOMI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Qurbon hayiti biz musulmonlar uchun ulug' bayram bo'lib, Alloh taolo bu kunda bizlarni hayit namozini o'qishga, qurbi yetgan kishilarni esa qurbonlik qilishga buyurgan. Qur'oni karimda bu haqda shunday bayon qilingan:

Bas, Robbingga namoz o'qi va jonliq so'y (Kavsar surasi, 2-oyat).

Shuningdek, qurbonlik haqida Baro ibn Ozib roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

"Darhaqiqat, bugungi kunda avval boshlaydigan ishimiz iydul azho (qurbon hayiti) namozini o'qish, so'ngra (uylarimizga) qaytib qurbonlik qilishdir. Kim shunday qilsa, demak u sunnatimizga muvofiq ish qilibdi. Kimda kim hayit namozidan oldin so'ysa, u qurbonlik emas, balki o'z ahli uchun taqdim qilgan go'shtdir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Qurbonlik qilishdan maqsad – bandaning Alloh taolo amriga bo'ysinishi va taqvosini namoyon etishdir. Bu haqda Alloh taolo Qur'oni karimda shunday marhamat qildi: ya'ni: "Allohga (qurbonlik) go'shtlari ham, qonlari ham yetib bormas. Lekin u Zotga sizlardan taqvo yetar. Alloh sizlarni hidoyat qilgani sababli - U zotni ulug'lashlaringiz uchun - ularni sizlarga bo'ysundirib qo'ydi. Ezgu ish qiluvchilarga xushxabar bering!" (Haj surasi, 37-oyat).

Demak, qurbonlik qiluvchi shaxs niyati to'g'ri bo'lishi, amalini xolis Alloh taolo uchun qilgan bo'lishi lozimdir. Banda ixlos bilan qurbonlik qilib, Alloh yo'lida jonliq so'ymoqdami, demak, o'sha bandaning Alloh taolaga taqvosi bor ekan. Allohning roziligi uchun borini qurbon qilishga

Qurbon hayiti
muborak bo'lsin!



tayyor ekan.

Hayit bayrami kunida qarindosh-urug'larni borib ko'rish, yor- birodarlarni ziyorat qilish, beva-bechoralar holidan xabar olish kabi ishlar ushbu kunda savobi ulug' amallardan hisoblanadi. Biror sababga ko'ra arazlashgan, gina-kuduratli tanish-bilishlar ham huddi shu muborak ulug' kunlarda bir-birlariga quchoq ochsalar, o'zaro uzr so'rashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kechirimli va mehr-shafqatli bo'lish har bir musulmon uchun ham qarz, ham farzdir.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga muvofiq bayram kunlarida o'zaro mehr-oqibatni, muruvvatni, hamkorlik va birodarlikni yana ham kuchaytirishimiz ayni muddaodir. Shuningdek, bu muborak kunlarda ota-onalarimizni, ustozlarimizni, qarindosh-urug'lar, yor-birodarlarni, bemor va muhtojlarni ziyorat qilish, hol-ahvol so'rash, ularga hadyalar berib, shirin so'zlarimiz bilan xushnud etish bayram kayfiyatiga yanada quvonch bag'ishlaydi.

Chunki Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: "Bu kunlarda qilingan yaxshi ishlar boshqa kunlardagidan Alloh taolaga suyuqliroqdir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bu kunda yanada mehribonroq, shafqatliroq bo'lar, yetim-yesirlar boshini silar, qariyalar, kasalmandlar, kam ta'minlanganlardan xabar olar, ularning ko'ngillariga ham bayram shukhini olib kirar edilar. Hadisda shunday marhamat qilinadi: "O'zi to'q bo'laturib, yon qo'shni-



si och bo'lgan kishi komil mo'min emas" (Imom Ahmad rivoyati).

Demak, atrofimizdagi qurbonlik qilishga qodir bo'lmagan qo'ni-qo'shnilarimizni ahvollaridan xabar olib, ularga qurbonlik go'shtlaridan ham ulashishimiz iymonimizni yanada mukammal qiluvchi omil ekan.

Shunday fazilatli kunlarda duoga qo'l ochib, ona Vatanimiz va butun dunyoni tinchlik va osudalik, xalqimizni farovon aylab, keyingi yil Qurbon hayiti kunlariga sog'salomatlik bilan yetib borishni barchamizga nasib etishini so'raymiz! Alloh taolo yurtimizni bundan ham obod qilib, xalqimizning moddiy va ma'naviy boyligini bundanda ziyoda bo'lib borishini muyassar aylasin!

Alloh taolo barchamizni hayitlarga salomat yetkazsin! Qurbonlik va shu kabi O'zi rozi bo'ladigan amallarda bardavom qilib, ikki dunyo saodatiga musharraf aylasin! Omin!

Ergashboy HAMIDOV,

Bekobod shahar bosh imom-xatibi.

NAZARIYA VA AMALIYOT BIRLIGI

Metallurgiyada boy tarixiga ega bo'lgan Bekobod shahrida metallurg-faxriylar pensiyada bo'lsalarda o'z bilimlarini yosh mutaxassislariga o'rgatish orqali sohaning taraqqiyotiga hissalarini qo'shayaptilar. O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod hududiy bo'linmasi faoliyati avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni shunchaki so'z bilan emas, balki amalda ham yaqqol isbotlab kelmoqda.

Bugungi kunda Kengash a'zolari "O'zmetkombinat" AJ pensionerlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilangina cheklanib qolmaydilar. Ular yoshlarga ustozlik qilishadi, ta'lim tashabbuslarida ishtirok etishadi, universitetlar bilan hamkorlik qilishadi, yoshlarning tanlagan kasblariga bo'lgan ishonchini oshiradilar. Kengash faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri murabbiylik tizimiga aylandi. Bu tizim orqali faxriylar bilim va tajribalarini talabalar va yosh mutaxassislariga o'rgatmoqdalar.



Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti hamda Moskva po'lat va qotishmalar instituti Olmaliq filiallari kabi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik nazariya va amaliyot o'rtasida mustahkam ko'priq qurish imkonini bermoqda. Faxriylar talabalar uchun ma'ruzalar o'qiydilar, ekskursiyalar va amaliyotlarni tashkil qiladilar, tajriba va malakalarini o'rgatadilar.

Yaqinda "O'zmetkombinat" Ajda bu oliy o'quv yurti talabalarini uchun navbatdagi o'quv-amaliy ekskursiya o'tkazildi. Talabalar korxona bilan tanishishni kombinat tarixi muzeyidan boshladilar, u yerda metallurgiya



gigantining shakllanishi, uning bosqichma-bosqich rivojlanishi, texnik yutuqlari va taniqli metallurglar, turli kasb egalari haqida tasavvurga ega bo'ldilar.

Shundan so'ng talabalar Elektrda po'lat eritish, Navli prokatlash, Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmalarida bo'lishdi. U yerda talabalar po'lat eritish, prokat, ferroqotishmalar ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rib, metallurglarga yaratilgan mehnat sharoitlari darajasini baholash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yoshlarda texnologik jarayonlarning tafsilotlari alohida qiziqish uyg'otdi. Ularning mohiyatini anglash maqsadida talabalar o'zlariga hamrohlik qilgan tajribali mutaxassislar va faxriylarga turli savollar berishdi.

Ekskursiya yoshlarda katta taassurotlar qoldirish bilan birga, ularning bo'lajak kasblarini yanada mukammal o'rganib olishlariga qo'shimcha rag'bat berdi.

DAVLAT ISHTIROKIDAGI YIRIK KORXONALAR XUSUSIYLASHTIRILADI

Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar va tijorat banklarining faoliyati samaradorligini oshirish va ularni xususiylashtirish orqali xorijiy investitsiyalar jalb etilishini jadallashtirish maqsadida Prezidentning 2025-yil 21-apreldagi PQ-145-sonli qarori qabul qilindi.

“Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to‘g‘risida”gi bu qarorga muvofiq, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro va mahalliy bozorlarda sotishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. Ular:

a) 29 ta davlat ishtirokidagi yirik korxona ustav kapitalidagi aksiyalar paketini (ulushlarni) nufuzli xalqaro professional konsultantlarni jalb qilgan holda ommaviy savdolarga chiqarish;

b) 12 ta davlat ishtirokidagi yirik korxona ustav kapitalidagi aksiyalar paketining xalqaro va mahalliy fond bozorlarida birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini o‘tkazishdan iborat.

Qarorga muvofiq:

a) Professional konsultantlarni jalb qilgan holda xalqaro va mahalliy bozorlarda ommaviy savdolarga chiqariladigan aksiyalar paketlari (ulushlar) ro‘yxati;

b) Xalqaro va mahalliy fond bozorlarida aksiyalarining birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifi o‘tkaziladigan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar ro‘yxati;

v) Davlat ishtirokidagi ayrim yirik korxonalarni sotish mexanizmi;

g) Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar ustav kapitalidagi aksiya paketlarini (ulushlarni) xususiylashtirish oldi tayyorgarlik ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishchi guruhi tarkibi va uning asosiy vazifalari tasdiqlandi.

2025-yil 1-iyulga qadar Energetika vazirligining yoqilg‘i yetkazib berishning eng kam miqdori bo‘yicha kafolati asosida xalqaro bozorda issiqlik elektr stansiyalarining ochiq ommaviy savdolari e‘lon qilinadi.

Tasdiqlangan chora-tadbirlar ijrosi yakuni bo‘yicha «O‘zmetkombinat» AJning ustav kapitalidagi davlat ulushi savdoga chiqariladi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan birgalikda 2025-yil 1-dekabr qadar 2030-yilgacha davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish strategiyasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasi-ga kiritadi. Bu jarayonga xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari ham jalb etiladi.

Oxirgi besh yilda tog‘-kon va metallurgiya sanoatiga qariyb 9,5 milliard dollar investitsiya jalb qilinib, 15 ta yirik loyiha ishga tushirilgan. Natijada bu soha iqtisodiyotni transformatsiya qilishda eng muhim drayverga aylanib, mamlakat sanoati hajmining uchdan biri uning hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tog‘-kon sanoati elektrotexnika, qurilish materiallari, kimyo, zargarlik kabi tarmoqlar uchun xomashyoni ko‘paytirib, ularning o‘shishiga katta turtki bermoqda. Shuningdek, kombinatlar 60 dan ortiq kichik va o‘rta korxonalar bilan kooperatsiya asosida yaqindan ishlayapti.

O‘zmetkombinat” AJda investitsiya dasturi asosida mamlakatda ham eng katta loyihalardan biri Quyuv-prokatlash majmuasini qurish loyihasi amalga oshirilmoqda.

INVESTITSIYA DASTURI – AMALDA

LOYIHANING KO‘LAMI VA ISTIQBOLLARI

Quyuv-prokatlash majmuasining ishlab chiqarish quvvati yiliga 1 million tonnadan ortiq issiq prokatlangan po‘lat o‘ramlari (listlar)ni ishlab chiqarish imkonini beradi. Barcha mahsulotlar qat‘iy xalqaro andozalarga javob beradi va kombinatning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunga qadar qurilish yakuniy bosqichga yetdi. Asosiy texnologik uskunalarni o‘rnatish to‘liq yakunlandi va ishga tushirish ishlari faol olib borilmoqda.

Yangi majmuaning ishga tushirilishi nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki sanoatning barqaror o‘shishini ta‘minlaydi. Ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va ekologik xavfsizlikni oshiradi.

Quyuv-prokatlash majmuasi ishga tushirilishi bilan mamlakat chet eldan po‘lat mahsulotlarini sotib olishni sezilarli darajada kamaytiradi va to‘liq o‘zini o‘zi ta‘minlashga o‘tadi.

INNOVATSIYALAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Majmua Italiyaning yetakchi kompaniyasi “Danieli” tomonidan yetkazib berilgan va o‘rnatilgan eng yangi texnologiyalar va yuqori aniqlikdagi uskunalarni bilan jihozlangan. Bu tayyor mahsulotlarning yuqori sifatini va zamonaviy metallurgiya andozalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Bugungi kunga qadar “DSP-120” elektr yoyli po‘lat ishlab chiqaruvchi pech, po‘latni uzluksiz quyish mashinasi, tunnelli pech va prokat stanini o‘rnatish va ishga tushirish va boshqalarda barcha montaj va sozlash ishlari to‘liq yakunlandi. Zamonaviy “Hercules” silliqlash stanogi o‘rnatilgan vallarni silliqlash ustaxonasida ishlar yakunlandi.

Texnologik jarayon uchun zarur bo‘lgan siqilgan havo va boshqa pnevmatik tizimlarni uzluksiz ta‘minlaydigan kompressor stansiyasi to‘liq qurilib, foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, Xitoyning AVIC INTI kompaniyasidan korxonani zarur miqdordagi texnik kislorod bilan ta‘minlaydigan yangi kislorod stansiyasining qurilishi yakunlanmoqda.



IQTISODIY TA‘SIR VA BARQAROR RIVOJLANISH

Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi katta ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradi. Bu kombinatda 1250 dan ortiq va tarmoq sohalarida 5000 tagacha yangi ish o‘rinlarini ochishga yordam beradi. Loyiha zamonaviy ekologik andozalarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Innovatsion tozalash tizimlari va energiya tejaydigan texnologiyalar resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlash bilan birga atrof-muhitga korxonaning salbiy ta‘sirini kamaytiradi.

LOYIHANING MAMLAKAT UCHUN AHAMIYATI

Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi O‘zbekistonning sanoat qudratini mustahkamlaydigan strategik qadamdir. Bu mamlakatdagi eng yirik metallurgiya korxonasi bo‘lib, u O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshiradi va jahon po‘lat bozoridagi mavqeini mustahkamlaydi.



BEKOBOD SHAHRIMIZNING 80 YILLIK TO'YI MUBORAK BO'LSIN!

БЕКОБОД – ДУНЁ БЎЙЛАБ БЕҚИЁС ВА БЕТАКРОР ШАҲАР

Jahonda shaharlar ko'p, kentlar bisyor...

Har birining o'z o'rni, o'z tarovati bordir, ehtimol... Illo jonajon Vatanimizning so'lim go'shasi – BEKOBODning fayzi o'zgacha: sohir saharlari, sokin oqshomlari, betakror tabiati, fusunkor manzaralari har qanday kishini o'ziga rom etmay qolmaydi.

Bekobod – dunyo bo'ylab beqiyos va betakror shahar! Dunyo kezhgan har bir inson buni ming marta tasdiqlaydi!

Bekobodda bor ko'p jihatlar Qur'oni karim va hadisi shariflarda zikr etilgan. Bekobod – Xudo nazar qilgan, jannatmakon yurtning Xudo nazar qilgan, jannatmakon shahri! Allohning rahmati yog'ilgan Ona-shahrimiz xalqiga bayramlar muborak bo'lsin!

Bu tabarruk diyor – Bekobod zaminida ne-ne ulug' insonlar, ne-ne Xudoning do'st bandalari o'tishgan... Dinimiz uchun, tinchligimiz uchun, masjidlarimiz uchun, qabristonlarimiz uchun, mahallalarimiz uchun, xalqimiz uchun, yurtimiz uchun, Bekobodimiz uchun, kombinatimiz uchun jonini-molini fido etib ketganlar yotishibdi...

Fursatdan foydalanib, Bekobodimiz nomini, obro'sini viloyatda ham, Respublikada ham, Osiyo miqyosida ham, jahon miqyosida ham eng yuqori darajalarga ko'tarayotgan turli sohadagi barcha bekobodliklarimizga alohida tashakkurimizni bildiramiz!

Shunday farzandlarni o'stirgan ota-onalari-ga ming rahmat!

Shunday kuchli mutaxassislarni, o'z sohala-

ring haqiqiy ustalarini tarbiyalagan ustozlariga million rahmat!

Ular bergan chiroyli ta'lim-tarbiyalarini olganlari uchun o'zlariga ham mingdan-ming rahmat!

Xudo xohlasa, nasib qilsa, hech qanday shak-shubha yo'qki, bu asli pok, zoti ulug' bo'lgan Bekobod xalqidan hali yana ko'p ulug' insonlar, butun umrini, hamma aql-zakovatini, bor ilm-bilimlarini xalqimiz, yurtimiz uchun fido etadigan olijanob insonlar chiqadi!

Siz muhtaram va azizlarni Bekobod xalqimizni shahrimizning tashkil etilganining 80 yilligi munosabati bilan chin qalbimdan tabriklayman!

Alloh taboraka va taolo har bir xonadonga sog'lik-salamatlik, tinchlik-xotirjamlik, ilohiy fayz-baraka, ko'pdan-ko'p yaxshiliklar ato etsin!

Iloho jannatmakon yurtimiz tinchligi, muqaddas Vatanimiz ravnaqi, dono xalqimiz salomatligi va farovonligi uchun muhtaram Yurtboshimizning dono rahbarliklari ostida, hukumatimiz tomonidan oqilona olib borilayotgan xayrli, savobli ishlarini amalga oshirish maqsadida viloyatlarimiz rahbarlari hamda shahar va tuman rahbarlarining, xususan Bekobodimizning rahbarlari boshchiliklaridagi mehnatkash xalqimiz olib borayotgan barcha xayrli, yaxshi, savobli ishlarda Alloh taolo O'zi madadkor bo'lsin! Yurtimizni tinch, osmonimizni musaffo qilsin! Turmushimiz obod, xirmonlarimiz



mo'l, oilalarimiz mustahkam, bolalarimiz har tomonlama sog'lom, ma'naviyatimiz yuksak bo'lsin!

Mehribon Parvardigorimiz dono xalqimizni doimo turli xil o'rinlarda har xil shakllarda qilayotgan yaxshi, xayrli, chiroyli, savobli ishlarini O'z dargohi ilohiysida qabul aylasin! Iloho xalqimizga tinchlik-xotirjamlik, sihat-salamatlik, oilalarimizga fayzu ilohiy, baxt-saodat, to'kin-sochin dasturxonlar nasib qilsin! Mehribon Parvardigorimiz O'zi – eshitib turuvchi, ko'rib turuvchi va bilib turuvchi Zot! Hammalarimizning dilimizdagi niyatlarni, qalbimizdagi orzularimizni va barcha hojatlarni o'ylaganimizdan ham afzali-ziyodasi bilan ravo qilsin!

Iloho dehqonchiliklarimizga va kasb-korlarimizga xayr-baraka berib, ishlarimizda ko'pdan-ko'p omadlar, muvaffaqiyatlar va behisob xursandchiliklar ato etib, ikki dunyoda ham azizu mukarram aylasin!

Ibrohimjon domla INOMOV.

ULAR KOMBINAT FAXRI

MEHNAT QILGAN ELDA AZIZ

Ahmadjon Saidqulov 2002-yili "Do'stlik" ordeni hamda 2008-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. Bu yuksak mukofotlar bilan fidokorona mehnati tufayli Vatan taqdirladi, xizmatlari, zahmatlari e'tirof etildi. Elda azizu mukarram bo'ldi. Halol mehnat qilganlar hech qachon el nazaridan qolmaydi, doimo ulug'lanib, taqdirlanib keladi. Ayniqsa "O'zmetkombinat" fidoiylari mana shunday e'tiborda.

A.Saidqulov 1977-yilda O'zbekiston metallurgiya zavodining Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexida o'rab-taxlovchi bo'lib ish boshladi. Shu yilning o'zidayoq Marten sexida po'lat quyuvchi yordamchisi bo'lib ishga o'tdi. Ikki yil harbiy xizmatni o'tab qaytgandan so'ng 1981-yil yana o'z qadrdon jamoasiga qaytdi va ishini davom ettirdi. Marten sexida po'lat erituvchi, usta, katta usta vazifalarida mehnat qildi.

Kombinatda 40 yildan oshiq ishlagan A. Saidqulov nafaqat o'zi mehnat qilgan Marten sexida balki korxonada, shahrimizda ham malakali mutaxassis, yaxshi inson sifatida hurmatga sazovor bo'lgan. U odamlardan vaqtini ham, yordamini ham ayamaydi. Uni yaxshi taniganlar bu insondan juda mamnun. Mana shunday xislatlari uchun ham u ko'plab yosh metallurglarga ustozlik qilgan. U ko'p



marta "O'zmetkombinat" Ajda "Yoshlarning eng yaxshi murabbiyi" tanlovlarida g'olib chiqqan.

Usta po'lat erituvchi sifatida sexda unga teng keladiganlar bo'lmagan. U zimmasidagi reja va topshiriqlarni muntazam ravishda ortig'i bilan bajarib kelgan. U boshchiligida eritilgan po'lat xalqaro sifat andozasiga to'liq

javob berardi.

2015-yildan pensiyaga chiqqunga qadar Temir-tersak parchalarini qayta ishlash sexida gaz bilan temir kesuvchi, temir va metallarni maydalovchi vazifalarida ishladi.

Ajoyib inson, yaxshi mutaxassis bo'lmish Ahmadjon aka respublikamiz sanoatini jahon andozalari asosida yuksaltirish, fan-texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ko'p yillik samarali mehnati bilan xalqimiz, hukumatimiz e'tiborini qozonib e'tirofiga erishdi.

"Mehnat qilgan elda aziz", – deydi dono xalqimiz. Boy mehnat tajribasi, mehnatda erishgan yutuqlari uchun A. Saidqulov Vatanimiz tomonidan munosib taqdirlangan. 1993-yil u O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan. 2002-yili "Do'stlik" ordeni va 2008-yil mustaqillik bayrami oldidan yana bir hukumat mukofotiga loyiq ko'rildi. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi.

Mana shunday o'z kasbining mohir ustalari kombinatimiz faxri. Ularni har qancha qadrlasak, hayot maktabini yoshlarga o'rgatsak arziydi.

Diyor ZULFIQOROV.

PO‘LAT ZOLDIRLAR – UNUMDORLIK OSHMOQDA

Zoldir prokatlash bo‘linmasi nafaqat kombinatimiz balki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ishlab chiqarish jamoasidir. Bu joyda tayyorlanayotgan mahsulotlar Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinatlarida rudani maydalashda ishlatiladi. Bu gigant korxonalarning bir maromda ishlashida Zoldir prokatlash bo‘linmasi tomonidan yetkazib berilayotgan mahsulotlarning ham munosib o‘rni bor. Shuningdek, sement sanoati korxonalarining ham po‘lat zoldirlarga ehtiyoji katta.

Kombinatimizda 1994-yil may oyida yillik quvati 100 ming tonnaga ega bo‘lgan po‘lat zoldirlar ishlab chiqarish stani foydalanishga topshirilgan edi. 2008-yilda po‘lat zoldirlar prokatlash stani modernizatsiya qilinishi yakunlandi va yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 180 ming tonnaga yetkazildi. Asbob-uskunalarini modernizatsiyalash jarayonida transport rolganglar konstruksiyasiga o‘zgartirishlar kiritildi. Bu ishlab chiqarish unumdorligini 30 foizga oshirdi.

Bo‘linmada 1-qizdiruv pechi rekonstruksiya

qilinganidan so‘ng yiliga 250 ming tonna po‘lat zoldirlar ishlab chiqarish quvvatiga erishildi.

Bu joyda ishlab chiqarilayotgan diametri 40, 50, 65, 70, 80, 100, 120 mm. bo‘lgan po‘lat zoldirlar peshma-pesh iste‘molchilarga jo‘natilmoqda. Po‘lat zoldirlarga bo‘lgan ehtiyojning oshib borayotganligiga tufayli bo‘linmada mahsulot ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirishga kirishildi. Shu bilan birga bo‘linmada po‘lat



zoldirlar ishlab chiqarish rejaları ham ziyodi bilan bajarib kelinmoqda. O‘tgan oyda jamoa 18941 tonna mahsulot ishlab chiqarib, rejani 106,7 foizga bajardi. Shu bilan birga joriy yilning to‘rt oyida ham belgilangan reja oshirib ado etildi. 76 200 tonna o‘rniga 80 865 tonna po‘lat zoldirlar tayyorlandi.

Diyor ZULFIQOROV.



RANGLI METALLAR ISHLAB CHIQRISH

BARQARORLIK, SIFAT, NATIJA

Rangli metallar ishlab chiqarish bo‘linmasi – bu mis va uning qotishmalaridan tayyorlanuvchi lenta hamda tasmalarning to‘liq texnologik ishlab chiqarish sikliga ega bo‘lgan zamonaviy korxonadir. Bo‘linmaning yillik ishlab chiqarish quvvati 3200 tonnani tashkil etadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 70 foizdan ortig‘i xorijga eksport qilinmoqda. Bu esa mahsulot sifati va raqobatbardoshligining yuqoriligidan dalolat beradi.

Bo‘linmada asosan yosh, kuch-g‘ayratli va malakali 137 nafar mutaxassis mehnat qiladi. Jamoaning jipsligi, professionalligi va mehnatsevarligi ishlab chiqarish vazifalarini barqaror va o‘z vaqtida bajarishga imkon bermoqda.

Jumladan o‘tgan aprel oyida reja bo‘yicha 180 tonna mahsulot ishlab chiqarilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa, jamoa bu ko‘rsatkichni oshirib, 183 tonna mis va uning qotishmalaridan mahsulot ishlab chiqardi. Bu esa ishning yuqori darajada tashkil etilganini va xodimlarning ishga bo‘lgan mas‘uliyatini ko‘rsatadi.



KATTA KONSTRUKSIYALAR TAYYORLANDI

Metall konstruksiyalar bo‘linmasi tomonidan tayyorlanadigan mahsulotlarga kombinatda talab katta. Bo‘linma oyiga 180 tonnadan oshiq tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Iqtisodchilarning so‘zlariga ko‘ra, joriy yilning dastlabki to‘rt oyida jamoa 755 tonna metall konstruksiyalar ishlab chiqargan.



Bo‘linmaning asosiy vazifasi uskunalarini ta‘mirlash va modernizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan turli qismlar, detallar va konstruksiyalar ishlab chiqarishdir. Bundan tashqari, bo‘linma kombinatning yangi ob‘ektlarini qurish, turli xil murakkablikdagi metall konstruksiyalarni ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda jamoa mamlakatdagi eng



yirik investitsion loyihalardan biri bo‘lgan Quyuv-prokatlash majmuasi uchun yirik konstruksiyalarni ishlab chiqarishga e‘tibor qaratdi. Xususan, 2, 3 va 11-sonli binolarni qurish uchun ustunlar, to‘sinlar, zinapoyalar, to‘siqlar kabilar yasaldi.

Bo‘linma rahbariyati hamkasblarini namunalı mehnatlari bilan ilhomlantiradigan malakali mutaxassislarning nomini minnatdorchilik bilan ta‘kidlaydilar. Bular ustalar Davron Tursunov va Muhammadali Zairqulov, shuningdek, payvandchilar Ziyod Rasulov, Sarvar Jamoldinov va Yo‘ldosh Uralovlar kabilardir. Ularning tashabbuskorligi, mas‘uliyatni chuqur his etishlari va kasbiy mahoratlari tufayli bo‘linmada ishlar namunalı olib borilmoqda.

ISTE‘MOLCHILAR TALABIGA YARASHA

Navli prokatlash bo‘linmasining po‘lat simlar ishlab chiqarish uchastkasida umumiy maqsadlar va temir-beton konstruksiyalari uchun mo‘ljallangan po‘lat simlar ishlab chiqariladi. Mahsulot ishlab chiqarishda ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan po‘lat simlar ishlab chiqaruvchilar iste‘molchilarning po‘lat simlarga bo‘lgan talabini qondirib, buyurtmachilar safining yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Po‘lat simlar ishlab chiqarish uchastkasi o‘tgan oyda ham turli diametrdagi mahsulotlarni tayyorlab, iste‘molchilar ehtiyojini qondirishdi. Aprel oyida 331 tonna mahsulot ishlab chiqarilib reja 110,3 foizga bajarildi. Joriy yilning to‘rt oyi mobaynidagi reja esa 110,8 foizga uddalandi. Iste‘molchilarga 1 330 tonna po‘lat simlar yetkazib berildi.



Elektr tarmoqlar va podstansiya bo'linmasi kombinatni barqaror ravishda elektr bilan ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. Bo'linma jamoasi kombinatda amalga oshirilayotgan muhim loyihalarining bevosita ishtirokchilari hisoblanadi.

BARQAROR ISHLASH OMILI

Jumladan Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi doirasida ular "Pech" podstansiyasida ikkita yangi 200 MVA quvvat transformatorlarini o'rnatishda ishtirok etdilar. Bundan tashqari, bo'linma mutaxassislari Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini "Pech" podstansiyasi bilan bog'laydigan 220 kV kuchlanishli LM-5 elektr uzatish liniyasini sozlash ishlari bilan shug'ullandilar.



Bu mas'uliyatli ishlarda elektrmontyorlar Bahrullo Mallayev, Halim Fayziyev, Rasul Ziyoyev, usta Salim Suvonqulov va katta usta Dilmurod Xatamov boshqalarga o'rnak ko'rsatdilar. Ularning yuqori malakasi, mas'uliyatni his etib ishlashlari va jamoaning o'zaro ahilligi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Elektr tarmoqlar va podstansiya bo'linmasi jamoasi oldida yangi vazifalar va loyihalar turibdi. Ular bu vazifalarni ham albatta yuqori darajada amalga oshiradilar deyishga barcha asoslar bor.

FAOL ISHTIROK ETAYLIK!

Butun mamlakatimizda bo'lganidek 20-maydan 20-iyun kuniga qadar "O'zmetkombinat" Ajda ham "Dolzarb 30 kun" deb nomlangan maxsus yong'in xavfsizligi oyligi o'tkazilmoqda. Oylik doirasida kombinat tamonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi-ga asosan ishlar tashkil etilmoqda. Tarkibiy bo'linmalarda yong'in xavfsizligi choralari yanada kuchaytirildi.

Jumladan kombinat tarkibiy bo'linmalari va "Ikkilamchiqorametal" filiallari rahbarlari ishchi-xodimlar va mutaxassislar bilan yong'in xavfsizligi talablari to'g'risida navbatdan tashqari yo'l-yo'riqlar o'tkazilmoqda. Kombinatt bo'linma va uchastkalarida gaz, elektr va isitish asboblari yong'inga qarshi holatlari tekshirilmoqda.

Shuningdek, yong'inga qarshi suv ta'minoti (gidrant, sig'im, suv havzalari, ichki yong'in kranlari) soz holatga keltirish choralari ko'rilmoqda. Kombinatt bo'linma va uchastkalarida mehnat muhofazasi, sanoat va yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi, birlamchi o't o'chirish vositalari hamda avtomatik yong'indan ogohlantirish tizimlari holati yuzasidan dastlabki tekshiruvlar boshlab yuborildi.

Oylikning ilk kunlaridayoq metallurglarning va aholining yong'in xavfsizligi qoidalarini bo'yicha bilimlarini mustahkamlashga



qaratilgan tadbirlar o'tkazish bo'yicha rejalar ishlab chiqildi.

Aholining xavfsizlik madaniyatini oshirish va yong'inlar oldini olish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Oylikning qolgan kunlarida ham kompleks profilaktik va amaliyotga asoslangan tadbirlar izchil davom ettirilishi rejalashtirilgan.

Diyor BOBONAZAROV,
"O'zmetkombinat" Ajning OYOXTTEB
boshlig'i, podpolkovnik.

YONG'INLARNING ASOSIY SABABI NIMADA?

Elektr tarmoqda qisqa tutashuv oqibatida elektr simlarining ortiqcha yuklanishidan simlar ulangan joylar qizishi va uchqunlanishi yong'inlarning asosiy sababchisi bo'lmoqda. Agarda simning ulangan joyida qarshilik kuchi kamaysa tok kuchi ortadi va bu holda katta qizish ro'y beradi. Natijada elektr tarmog'ida qisqa tutashuv bo'lib simlar ulangan joydagi izolyatsiyasi kuyadi va yong'in xavfini tug'diradi.

Uy sharoitida elektr tarmoq ortiqcha yuklanishi, bir vaqtda bir necha katta quvvat talab etuvchi elektr asboblari ishlashidan kelib chiqadi. (Yasama elektr pech, dazmol, radiopriyomnik va hokozalar). Eslatish kerakki sim kesimidan o'tuvchi tok talabdan ortiqcha bo'lsa simlar juda qattiq qiziydi va natijada yong'in xavfini oshiradi.

Simlarning ulanma joylari qizishi yaxshi kon-

takt bo'lmasligidan yoki qalaylanish o'rniga simlar burab o'ralishidan bo'ladi. Yomon kontaktlangan simlarning qizishi va uchqunlanishi natijasida ularning yaqinida turgan moddalar yonib ketishi mumkin. Ko'p yong'inlar xo'jalikda foydalanuvchi har xil isitish asboblari, elektr plita, choynaklar, dazmollardan bo'lmoqda. Odamlar bu asboblarni qoidaga zid ravishda ishlatishadi, ehtiyot va ziyrak bo'lmaydilar. Oqibatda qattiq qizib ketgan asboblardan atrofdagi narsalar alanga olib yonadi.

Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun elektr uskunalari o'rnatishda va elektr asboblardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya qilish lozim.

Javlon UMIRZOQOV,
"O'zmetkombinat" Ajning OYOXTTEB katta
inspektori.

O'QUV MASHQI O'TKAZILDI

"O'zmetkombinat" Ajda tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ob'ekt rahbariyati va fuqaro muhofazasi tuzilmalari rahbarlari va guruh tarkibi malakalarini oshirish maqsadida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganida talofatlarning oldini olish hamda fuqaro muhofazasi xizmatlari va ishchi-xodimlarni o'zaro hamkorlikda harakatlanishga tayyorlash maqsadida o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashqlari tadbirlari Elektr tarmoqlari va podstansiya bo'linmasining "Metallurgiya" uchastkasida tashkil-

lashtirildi.

Mashq jarayonida fuqaro muhofazasi tuzilmasining komandirlari va boshqaruv tarkibining qutqaruv ishlarini tashkillashtirish va olib borish bo'yicha bilimlari takomillashtirildi.

Shuningdek, tuzilmaning shaxsiy tarkibi bilan tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar (zilzila) sodir bo'lganda vayronalar ostidan, yonayotgan binolardan odamlarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqiga maxsus avtotransport vositalari ham jalb qilindi.

KO'HNA VA QADIMIY SAMARQANDGA SAYOHAT

Yaqinda Ijro apparati xodimlari O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Samarqandga tashrif buyurishdi.



Safar doirasida ular Amir Temur va uning avlodlari - Go'ri Amir maqbarasi, Shohi-Zinda me'moriy ansambli, Ulug'bek, Sherdor va Tilla Qori madrasalari bilan o'ralgan Registon markaziy maydoni, Bibixonim masjidi va boshqa tarixiy obidalarini ziyorat qildilar.

Sayohatchilar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov dafn etilgan joyga tashrif buyurib, uning xotirasiga bag'ishlab duo qildilar.

Shuningdek, Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'linmasi ishchi-xodimlari ham Samarqandga sayohatga borib kelishdi. Bu sayohatda xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchilar shaharning ko'p asrlik madaniy merosini aks ettiruvchi mashhur tarixiy obidalar va me'moriy diqqatga sazovor joylarni borib ko'rdilar.

Kombinat kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan bu sayohatdan ishchi-xodimlar yorqin taassurotlar bilan qaytib kelishdi.



1-IYUN - XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI

BOLA KULSA, OLAM KULADI

Farzand – inson umrining mazmuni. Bolalar esa insoniyat hayotining mohiyati. Ular borligi uchun tamaddun charxpalagi hamon aylanib turibdi.

Ko'zimiz quvonchi, ertamiz egasi bo'lgan bolajonlarni asrab-avaylash, komil inson etib tarbiyalash har bir ota-ona va oilaning burchi, har bir davlat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omil sanaladi.

Bola tabassumi – olam bezagi. Ayniqsa, 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida sayyoramiz bolajonlarning samimiy va beg'ubor kulgusi bilan yanada yasharib ketadi.

Bu sana quyoshli diyorumizda ham o'zgacha intiqlik bilan kutiladi. Azaldan bolajon bo'lgan xalqimiz shu kuni kundalik tashvishlarni bir



chetga qo'yib, farzandlarini istirohat bog'lariyu ko'ngilochar maskanlarga olib borishga oshiqadi. Bolajonlarga turli xil sovg'alar ulashiladi. Bu esa oilada mehr-muhabbat rishtalari-ni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umrimizning bahor fasli bo'lgan yoshlik har birimizning qalbimizda quvonchli kunlari saqlanib qolgandek, bugungi bolalarning bayram kunlari ham quvonchlarga to'lsin.

Zero, bola kulsa, olam kuladi. Olam kulsa, u quvonchga to'ladi, bizlarning ona yurtimiz yanada gullab yashnaydi. Bolalarning beg'ubor qalblari doimiy yayrab-yashnayversin.

CHALINMA, QO'NG'IROG'IM!

*O'rgatib sen hayotni,
Qo'lin tutdim sabotni,
Durdek tizdim bayotni,
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*

*Og'ushingdan ketgim yo'q,
Ustozlardan ko'nglim to'q,
Yuragimda mitti cho'g',
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*

*Ilm-la yo'l yorug'dir,
Xayrlashmoq og'irdir,
Ko'ngil sensiz sag'irdir,
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*

*Bu fursat qaytmas onlar,
Chulg'adi hayajonlar,
Zarb-la urgudek bonglar,
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*

*Qara, mungli ko'zlarga,
Til aylanmas so'zlarga,
Mushkul erur do'stlarga,
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*

*O'tinchim bugun sendan,
Ranjima aslo mendan,
Ayirma, "yoqa, yeng" dan,
Mehri ummon dargohim,
Chalinma, qo'ng'irog'im!*
Munira SULTON.

5-IYUN - BUTUNJAHON ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH KUNI

EKOLOGIYANI ASRASH – HAYOTNI ASRASH DEMAK

Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan yilga ko'payib borayapti. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maishiy chiqindilar hajmi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir ko'rsata boshlagan.

CHIQUINDILAR HAJMI HAM ORTIB BORMOQDA

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Shimoliy Yevropada allaqachon chiqindilarni alohida yig'ish yo'lga qo'yilgani natijasida qog'oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonning ekomuhitga ijobiy ta'siri juda katta. Chiqindilarni qayta ishlash energiya va xomashyoni sezilarli darajada tejaydi.

Bizda chiqindilarni qayta ishlash unchalik rivojlanmagan. Natijada chiqindilar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Respublika aholisi sonining oshib borishi, turmush darajasining yaxshilanishi, mahsulotlarning turlari ko'payib borishi bilan chiqindilarning ko'rinishi va hajmi ham ortib bormoqda. Chiqindilar bilan kuza-tiladigan eng katta muammo – bu ularni o'z vaqtida utilizatsiya qilish masalasidir. Ulardan samarali foydalanish, aylanma iqtisodiyot orqali qayta ishga tushirish kerak. Respublikada har yili o'rtacha 7 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Bu oilada o'rtacha har bir kishi kuniga 650 – 750 gramm chiqindi chiqaradi, degani.

INSONLARGA HAM XAVF TUG'DIRADI

O'z navbatida aksariyat chiqindilar tezda yo'q bo'lib ketmaydi. Misol uchun bir martalik sal-fetkalar 1-1,5 oyda, "fast-fud" markazlari lokatsiyalari tushilgan qog'ozlar 3 oyda, karton qutilar 1



yilda, konserva idishlar 10 yilda, saqich 30 yilda, plastik stakan 50 yilda, folga 100 yilda chiriydi.

Chiqindilar orasida biz har kuni ishlatadigan plastik paketlar esa 200 yilda parchalanadi va yo'q bo'lib ketmaydi. Ular suv manbalarimizni ifloslantiradi va dengizdagi tirik jonzotlarga zarar yetkazadi. Ko'plab dengiz hayvonlari plastik paketlarni yutib yuboradi yoki ularga o'ralib qoladi. Bu nafaqat hayvonlarga, balki farzandlarimizga ham xavf tug'diradi. Chiriyotgan chiqindi chiqarayotgan zaharli moddalar yerosti suvlariga yetib borib, insonlarni zaharlashi mumkin. Buning oldini olishga barchamiz mas'ulmiz.

IZLAGAN IMKON TOPADI

Yuviladigan va ko'p marta foydalaniladigan mato yoki paxta sumkalar plastik paketlarning o'rniga foydalanish mumkin bo'lgan eng yaxshi variantlardan biridir. Ular uzoq muddat xizmat qiladi va kam resurs sarfini talab etadi. Bu sumkalar tabiiy tolalardan tayyorlanib, ekologik jihatdan xavfsizdir. Ular mustahkam, ko'p marta ishlatiladi, zamonaviy va oson tashiladi. Kichik o'lchamlari sababli cho'ntakda yoki sumkada saqlash mumkin.

Kassa oldida sotuvchi sizga paket kerakmi, deb so'rsa, unga yo'q, deya javob bering. Xarid qilgan mahsulotlaringizni o'zingiz bilan olib kelgan sumkalar-

ga soling. Bu harakatlar plastik paketlardan foydalanishni kamaytirishga yordam beradi va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi.

Bizda hozir aholi chiqindini saralab tashlamayapti. Chiqindilarni saralash uchun avvalambor qanday chiqindilarni qayta ishlashga qabul qilinishini bilib oling.

Qayta ishlash uchun to'rtta asosiy turdagi chiqindilar mos keladi: plastmassa, shisha, metall, qog'oz. Aholi o'zi saralasa, ish ancha kamayadi, poligonga boradigan chiqindining hajmi ham qisqaradi.

MAKTABLARDAN BOSHLASH KERAK

Yana bir masala aholining ekologik madaniyatini oshirish kerak. Aksariyat holatda odamlar maxsus chiqindi qutilarigacha borishga erinishadi yoki chiqindilarning shamolda uchib ketmasligining oldini olishmaydi. Natijada ular daraxt shohlariga ilinib, qolganlari yerga sochilib yotadi.

Mana shunday holatlarning oldini olish, aholining ekologik madaniyatini oshirishni maktablardan boshlash kerak. Chiqindi bilan bog'liq holatlar haqida maktab darsliklariga ma'lumotlar kiritish kerak.

Ekologiyani asrash – hayotni asrash demak. Bunga esa barchamiz mas'ulmiz. Har birimiz har qanday masalada me'yorni unutmaylik. Har qanday qulaylik esa boshqa tomondan noqulaylik tug'dirmasligi to'g'risida chuqur mushohada yuritib qadam bosishni odat qilsak, ko'plab ekologik muammolarning oldini olishga katta hissa qo'shgan bo'lamiz.

Ismat DIYOROV.

SHIFOKORLAR TAVSIYASINI XODIM BAJARMASA NIMA BO'LADI?

Korxonalarda tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar beradigan tavsiyalarni xodim bajarmasa nima bo'ladi?

S. Ortiqova.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 17-moddasiga asosan bunday holatda ma'muriyat xodimni ishga qo'ymasligi mumkin.

Korxona sog'liqni saqlash idoralari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq ravishda bir qator kasblar va ishlab chiqarishlarning xodimlarini mehnat shartnomasini imzolash paytida



dastlabki tarzda va mehnat shartnomasi amal qiladigan davrda vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart. Xodim-

lar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bosh tortishga haqli emaslar.

Xodimlar tibbiy ko'riklardan o'tishdan bosh tortsalar yoki o'tkazilgan tekshirishlarning natijalari bo'yicha tibbiy komissiyalar beradigan tavsiyalarni bajarmasalar, ma'muriyat ularni ishga qo'ymaslik huquqiga egadir.

Shu bilan birga xodim, agar u o'zining salomatligi yomonlashishi mehnat sharoiti bilan bog'liq deb hisoblasa, navbatdan tashqari tibbiy ko'rik o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega.

Tibbiy ko'riklarni o'tkazish paytida xodimning ish joyi, lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanadi.

TA'TIL PULI QANDAY HISOBLANADI?

Mehnat ta'tili uchun beriladigan pul qanday hisoblab chiqiladi?

S. Gulmurodova.

Xodimga mehnat ta'tili puli uning 12 oy davomida olgan ish haqidan hisoblab chiqariladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yildagi 2985-sonli qarori bilan tasdiqlangan yillik mehnat ta'tili vaqtida saqlanib qolinadigan o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga binoan o'rtacha ish haqi hisob-kitob kunida belgilangan tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) kelib chiqiladi.

Korxonada 12 oydan ortiq ishlagan xodimlar uchun mehnat ta'tili haqi hisob-kitob qilinayotgan oydan oldingi 12 oy uchun olingan tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) ortiq bo'lgan barcha to'lovlarning o'n ikkidandan bir qismiga hisoblanadi.

Korxonada tegishli ravishda 6 oydan 11 oygacha ishlagan xodimlar uchun mehnat



ta'tili haqi hisob-kitob qilinayotgan oydan oldingi 6 va undan ortiq oylar uchun olingan tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) ortiq bo'lgan barcha to'lovlarning oltidan bir qismiga (tegishli ravishda yettidan bir qismiga, sakkizdan bir qismiga, to'qqizdan bir qismiga, o'ndan bir qismiga, o'n birdan bir qismiga) oshirilgan holda hisoblab chiqiladi.

Xodimlarning o'rtacha ish haqlari ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda tarif stavkasi (lavozim maoshi) asosida aniqlanadi. Ya'ni, "otpusk puli"ngiz oxirgi 12 oydagi (6 oydan 11 oydagi) o'rtacha oylik ish haqingiz bo'yicha hisoblanadi.

ENG KAM MUDDAT QANCHA BO'LISHI KERAK?

Xodimga qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlashning eng kam muddati qancha bo'lishi kerak?

B. Berdiqulov.

Intizomiy jazoni olib tashlash uchun Mehnat kodeksi qoidalarida eng kam muddat belgilanmagan. Istalgan vaqtda intizomiy jazo olib tashlanishi mumkin. Mehnat kodeksining 315-moddasiga asosan intizomiy jazoning amal qilish muddati u qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodimga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Ya'ni bu degani Ish beruvchi tomonidan intizomiy jazo olib tashlanmasa ham o'z o'zidan bekor bo'lib ketadi degani.

Mazkur moddaning 3-qismiga asosan ish beruvchi intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, xodimning bevosita rahbarining, kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasiga, shuningdek xodimning iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega. Intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Mehnat kodeksida intizomiy jazoni olib tashlash mutlaq ish beruvchining huquqi hisoblanadi.

Ish beruvchi iltimosni rad qilishga haqlimi? Albatta yuqoridagi moddaga e'tibor qaratsangiz bu yerda ish beruvchi intizomiy jazoni bekor qilishga haqli deyilmoqda, majbur emas.

ELEKTRON SHAKLI HAM TAN OLINADIMI?

Endilikda shaxsni tasdiqlovchi va boshqa hujjatlarning elektron shakli ham tan olinar ekan. Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Z. Jabborov.



Joriy yilning 1-iyulidan shaxsni tasdiqlovchi va boshqa hujjatlarning elektron shakli ham tan olinadi. Bu bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Bunda banklarda, notarial idoralarda, aeroportlarda ichki reyslarni ro'yxatdan o'tkazishda va O'zbekiston hududidan o'tuvchi poezdlarga chiqishda, davlat, korporativ va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan, elektron xizmat ko'rsatish hamda fuqarolarni qabul qilishda tegishli hujjatlarni taqdim etishni talab qiladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlarda

quyidagi hujjatlarning qog'oz shakli talab etilmaydi:

O'zbekiston fuqarosining biometrik pasporti, O'zbekiston fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi, haydovchilik guvohnomasi, tug'ilganlik haqida guvohnoma, nikoh qayd etilganligi haqida guvohnoma, nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma, transport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon), pensiya (nafaqa) guvohnomasi, fuqaroligi bo'lmagan shaxsning yashash guvohnomasi (ID-kartasi), nogironlik to'g'risida ma'lumotnoma, transport vositasining majburiy sug'urta (fuqarolik javobgarligi) bo'yicha sug'urta polisi, oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar va professional ta'lim olganlik to'g'risida davlat namunasidagi rasmiy hujjat, talabalik guvohnomasi, yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida ma'lumotnoma, turar joy obektlarining kadastr pasporti, jismoniy shaxsning shaxsiy avtomototransport vositasini boshqa shaxslarga boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma.

Ushbu hujjatlarning portaldagi elektron shakllari ham tan olinadi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

JAZIRAMA ISSIQDAN SAQLANING!

2024-yil iqlim tadqiqotlari tarixiga eng issiq yillardan biri sifatida kirdi. 2025-yil ham eng issiq yillardan biri bo'lishi kutilmoqda. Mutaxassislarning fikricha bu asosan qazilma yoqilg'ilar yonishi oqibatida hosil bo'luvchi issiqxona gazlari atmosferada to'planib, sayyoramizni qizdirishi tufaylidir. Afsuski, bu jarayon haligacha barqarorlashgani yo'q. Bundan tashqari, okean harorati juda yuqoriligicha qolmoqda, uning faol qatlami yaxshi isindi. Bu atmosferaning holatiga ham ta'sir qiladi. Okeanlardan uzatiladigan issiqlik ham havo haroratining oshishiga sabab bo'ladi

SOG'LIK UCHUN XAVFLI

Issiqlik har kimga ta'sir qilishi mumkin, ammo ba'zi zaif guruhlar, masalan, keksa odamlar va chaqaloqlarga jiddiy zarar yetkazish xavfi yuqori. Issiqlikning tanaga ta'siri va salqinlikni qanday saqlash haqida ko'nikmaga ega bo'lishimiz lozim.



Tana qizib ketganda, qon tomirlari kengayadi. Bu qon bosimining pasayishiga olib keladi va yurak qonni tanaga haydash uchun qattiqroq ishlaydi. Tomirlarda qonning shiddat bilan oqishi natijasida tanada toshmalar yoki oyoqlarning shishishi kabi yengil alomatlar kuzatilishi mumkin.

Shu bilan birga, terlash suyuqlik va tuzning yo'qolishiga olib keladi, oqibatda esa tanadagi muvozanat o'zgaradi. Bu qon bosimining pasayishi bilan birga, yurak xuruji xavfini oshiradi.

Iqlim o'zgarishi tufayli issiqlikning kuchayishi odamlarning ruhiy salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Avstraliyalik olimlarning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, global isishni to'xtatish bo'yicha faol choralar ko'rilmasa, 2050-yilga kelib ruhiy va xulq-atvor buzilishlari yuklamasi deyarli 49 foizga ortishi mumkin. Tadqiqot natijalari "Nature Climate Change" jurnalida e'lon qilindi.

Mualliflar ruhiy va xulq-atvor buzilishlari insonlarda xavotirli va tushkunlik holatlaridan tortib shizofreniya va giyohvandlikkacha bo'lgan kasalliklarni keltirib chiqaradi va ularni kuchaytirishini aniqladilar.

Ta'kidlanishicha, issiqlik uyquni buzishi, stressni kuchaytirishi va markaziy asab tizimiga kislorod yetkazilishini kamaytirishi mumkin, bu esa ruhiy kasalliklarning kechishini og'irlashtiradi. Ayniqsa, yoshlar xavf ostida: ular ko'pincha ochiq havoda ishlaydilar, ehtiyot choralarini kamroq ko'radilar va shu bilan birga ruhiy va xulq-atvor buzilishlariga erta yoshda duch kelishadi.

Tadqiqotchilar ruhiy salomatlikni himoya qilish iqlim o'zgarishiga moslashishning ajralmas qismi bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqda-

lar. Bunday choralarsiz haroratning ko'tarilishi butun jamiyat miqyosida ruhiy kasalliklar yukining jiddiy oshishiga olib kelishi mumkin.

QANDAY FARQLASH MUMKIN?

Yoz mavsumida issiqlik o'tgani va oftob urishi o'rtasidagi farqni tushunish, bu holatlarning oldini olish va kerak bo'lganda o'zingizga, yaqinlaringizga yordam berish juda muhim.

Ko'p insonlar oftob urishini issiqlik o'tgani bilan adashtiradi. Ular bir xil: issiqda uzoq vaqt turish natijasida ahvolning yomonlashishi hisoblanadi. Issiqlik o'tishi boshqa issiq muhitda, masalan, hammomda, yopiq xonada yoki tirbandlikda qolgan mashinada sodir bo'lishi mumkin. Issiqlik o'tganidan farqli o'laroq, oftob urishi inson tanasiga ultra-binafsha nurlarining bevosita ta'siri natijasida yuzaga keladi. Issiqlik o'tishi ham oftob urishining bir turi bo'lib uning oqibatlari sog'lik uchun xavflidir.

Haddan tashqari issiqlik o'tishi yengil alomatlarida sezilishi va og'ir holatlarda yurak mushaklari, buyraklarga zarar yetkazishi mumkin. Ko'p narsa issiq o'tgan vaqtga va undan keyin birinchi yordam ko'rsatilishiga bog'liq. Oftob urishi ko'ngil aynishi, terining oqarishi va xotirani yo'qotish kabi alomatlar orqali yuzaga chiqadi. Issiqlik o'tishi esa butun tanaga ta'sir qilishi mumkin.

Terlash - bu tananing tabiiy sovitish mexanizmi. Agar siz issiq havoda mashq qilsangiz, haddan tashqari issiq muhitda uzoq vaqt ishlasangiz va suvsiz bo'lsangiz, o'zingizni yaxshi his qilishingiz uchun zarur bo'lgan optimal tana haroratini ushlab turishingiz qiyin bo'ladi. Oftob urishi paytida infraqizil nurlanish miya tizimlariga kirib, uning bo'limlarida o'zgarish bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu esa kislorod yetishmasligi, ya'ni gipoksiyaga olib keladi.

QOIDALARGA RIOYA QILING!

Aziz metallurqlar, agar issiqdan saqlanishda oddiy qoidalarga rioya qilsangiz jazirama sizga sog'liq bilan bog'liq bo'lgan muammolarni keltirib chiqarmaydi.


Issiqlik urganda darhol salqin yoki shabada-li joyga o'ting, shoshmasdan ko'p suyuqlik iching.

Issiqda kundalik suyuqlik iste'moli miqdorini oshirish lozim. Organizmdagi suv tanqisligini oddiy ichimlik suvi bilan bartaraf etish lozim. Issiqlik urishidan saqlanish uchun



tanangizni sovutishga harakat qiling. Iloji boricha tez-tez dush qabul qiling.

Muntazam tozalanib turish teriga samarali-roq nafas olish imkonini beradi. Suv xona haroratida bo'lishi kerak. O'zingizni issiq va og'ir taom bilan qiynamang. Issiq havoda sovuq taomlarga afzallik berish kerak. Yog'li sut mahsulotlari va go'shtdan voz keching. Pivo va boshqa alkogolli ichimliklar ichmang, ular



organizm umumiy holatining yomonlashuviga olib keladi. Issiqda sizga tuzni qo'shimcha iste'mol qilish zarurligi haqida shifokor bilan maslahatlashing. Quyoshda uzoq vaqt turib qolgan mahsulotni iste'mol qilmang, chunki ulardan zaharlanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Och rangli tabiiy matolardan tikilgan kiyimlar kiyishga urining. Sintetik materiallar issiqxona taassurotini tug'diradi, havo o'tkazmaydi, to'q ranglar esa quyosh yorug'ligini o'ziga tortadi. Bosh kiyimlar kiyishdan uyal-mang. Zero issiqlik urishi, asosan bosh qizib ketganda ro'y beradi. Haddan ziyod baland poshnali oyoq kiyim kiy-mang.

Tomirlar issiqda yuqori og'irlik his qiladi. Poshnasi unchalik baland bo'lmagan bosonokalar, baletkalar, tuflilar va har tomonlama qulay bo'lgan ochiq shippaklarni tanlang. Iloji boricha konditsionerli joyda turing. Tashqarida faoliyatni cheklang yoki harorat sovuqroq bo'lgan vaqtga o'zgartiring. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilmang.

Agar alomatlar kuchayib ko'ngil aynishi va bosh aylanishini his qilsangiz, darhol tez yordam chaqiring. Shifokorga borishga urin-mang, har qanday vaqtda salomatlik holati yomonlashishi mumkin. Agar siz quyosh urishidan aziyat chekkan odamni kasalxonaga olib ketayotgan bo'lsangiz, uni yotqizilgan holda manzilga olib borish kerak.

Oftob urishining og'ir darajasida shoshilinch kasalxonaga yotish va shifokor tavsiyalariga amal qilish kerak.

**Sahifani shifokor
Mirzaburxon DO'STMURODOV
tayyorladi.**

"METALLURG" FUTBOL AKADEMIYASI

ORZULAR RO'YOBGA CHIQADI

"Metallurg" futbol akademiyasi – mamlakatimizdagi professional futbol kadrlarini tayyorlashga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar uchun birinchi o'quv muassasasidir. Tarbiyalanuvchilar texnika, taktikani o'zlashtiradilar, futbol tafakkurini, jismoniy tayyorgarlikni, psixologik barqarorlikni va stressni yengish qobiliyatini rivojlantiradilar. Murabbiylar ularga o'z emotsiyalarini nazorat qilishni, rejim va intizomga rioya qilishni o'rgatishadi. Jasurlik, qat'iyatlilik, chidamlilik va mardlik kabi muhim shaxsiy fazilatlarini shakllantirishadi. Akademiya dasturi futbolchilarni tayyorlashning eng yaxshi jahon an'alarini birlashtirib, Yevropa futbolining ilg'or metodikalariga asoslangan.

Akademiya yosh futbolchilarni sport karyerasiga tayyorlaydigan professional o'quv muassasasidir. Akademiyaga istiqbolli o'yinchilar qat'iy tanlovdan keyin qabul qilinadi.



Zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan akademiyada futbolchilar Yevropa tajribasi asosidagi ilg'or mashg'ulot metodikalari

bo'yicha ispaniyalik professional trenerlar nazoratida o'qitiladi. Tarbiyalanuvchilarga xalqaro turnirlarda ham ishtirok etish imkoniyati beriladi.

Akademiya yashash, ovqatlanish, ekipirovka va o'qish xarajatlarini qoplaydi. Iqtidorli tarbiyalanuvchilar grant asosida o'qitiladi.

Akademiya futbolga va jamoaviy o'yinga muhabbat uyg'otadi. E'tibor bir zumlik natijalarga emas o'yin sifatiga qaratiladi. G'alabalar munosib o'yin bilan keladi.



Agar uchrashuv yaxshi o'ynalgan bo'lsa, murabbiylar jamoani mag'lubiyatdan keyin ham tabriklashlari mumkin.

Akademiyaga kirishga nomzodlar texnik mahorat, futbol tafakkuri, xarakter va iroda sifatleri, tinimsiz mehnatga tayyorlik mezonlari bo'yicha baholanadi.

"Metallurg" futbol akademiyasi ko'plab ustunliklarga ega. Mashg'ulotlarni ispan mutaxassislari va sertifikatlangan o'zbek murabbiylari olib boradi. Texnik direktor UEFA PRO litsenziyasiga ega.



Tarbiyalanuvchilar O'zbekistonda va uning tashqarisidagi musobaqalarda o'yin tajribasi orttiradilar.

Akademiya ixtiyorida yotoqxon, zamonaviy maktab, kutubxona, faollar zali, oshxona, trenajer zali, tabiiy va sun'iy qoplamali futbol maydonlari bor.

Akademiya qoshida multilingval dasturli (o'zbek, rus, ingliz, ispan tillari) xususiy maktab faoliyat yuritadi. Akademiya nafaqat sportchilarni, balki har tomonlama rivojlangan shaxslarni ham tarbiyalashni maqsad qilgan.

Akademiya muntazam ravishda respublika va xalqaro turnirlarda ishtirok etib, yuqori natijalarga erishmoqda. Uch yil ichida akademiya jamoalari 6 ta xalqaro turnir, shu jumladan 30 ta turnirda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritdi. 20 nafar tarbiyalanuvchi O'zbekiston o'smirlar terma jamoalarida o'ynagan. 2023-yilda "Metallurg U-19" jamoasi mamlakat chempioni bo'ldi.

"Metallurg" akademiyasi – futbol g'alabalari haqidagi orzular ro'yobga chiqadigan joy.

31-MAY - BUTUNJAHON TAMAKI CHEKISHGA QARSHI KURASH KUNI

ATROFDAGILAR UCHUN HAM ZARARLI

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) e'lon qilgan hisobotga ko'ra, tamaki mahsulotlari iste'moli yiliga 8 million kishining o'limiga sabab bo'lmoqda. Xavotirli jihati, ko'rsatkichlar yil sayin oshib boryapti. Yoshlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar orasida bu illatga berilib ketganlarning ko'payishi yanada tashvishli holat.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida papiros ishlab chiqaradigan mashinaning ixtiro qilinishi bilan chekish ommalasha boshlagan.

Chekishga bo'lgan munosabat 1956-yilda birdaniga o'zgardi. O'shanda jahonning turli mamlakatlaridagi 40 mingga yaqin shifokorlar o'z mijozlarining kasalligiga tamaki aybdor degan xulosaga kelgan edi.

Chekish turli kasalliklarni keltirib chiqarishdan tashqari inson umrini 15-20 yilga qisqartirishi allaqachon isbotlangan.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, nikotin inson organizmidagi meta-



bolik jarayonga xalaqit beruvchi, miya faoliyati va fiziologik funksiyalariga ta'sir qiluvchi alkogol va boshqa psixoaktiv moddalar kabi o'ziga o'rgatib qo'yadi, shu tarzda tamakiga jismoniy bog'liqlik shakllanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, chekish ta'siri ostida 25 dan ortiq kasallikning (yurak-qon tomir, o'pka va saraton) organizmda rivojlanishi kuchayadi. Jahon-

da o'pka rakidan o'limlarning 90 foizi, surunkali bronxitdan vafot etganlarning 75 foizi va yurakning ishemik kasalligi bilan hayotdan ko'z yumganlarning 25 foizi chekish bilan bog'liqdir.

Tamaki tutuni nafaqat chekuvchilarning o'zi, balki atrofdagilar uchun ham zararlidir. Havodan tamaki tutuni bilan birgalikda nafas olish passiv chekish hisoblanadi. Ikkilamchi tamaki tutuni-

ning xavfsiz darajasi mavjud emas. Tadqiqotlar passiv chekishning xavfi juda yaqqol ekanligini ko'rsatmoqda. Tamaki tutuni – filtrlanmagan tutundir. Unda kanserogenlar tamaki orqali nafas olinadigan tutunga qaraganda 50 baravar, qatron va nikotindan ikki baravar, uglerod oksididan 50 baravar va ammiakdan 50 baravar ko'p. Juda ko'p chekilgan xonada ishlovchi odamlar uchun passiv chekish darajasi bir kunda chekiladigan 14 ta tamakiga teng. Bu uni odatdagi chekuvchiga yaqinlashtiradi.

JSST ma'lumotiga ko'ra, tamaki chekishdan vafot etayotganlarning 12 foizi chekuvchi bo'lmaganlar, ya'ni passiv chekuvchilardir. Passiv chekuvchilar orasida bolalarning borligi chekishga qarshi kurashni qat'iy kuchaytirish kerakligini yana bir bor isbotlaydi.

Baxtiyor PARDAYEV,
shifokor.

HIKMAT IZLAGANGA HIKMATDIR DUNYO

Hovlidagi o'rindiqda ota-bola yonma-yon o'tirishibdi. Otaning yoshi ulug', o'g'il esa o'spirin yigit. O'g'li qo'lidagi telefonda nimalarnidir o'qiyapti. Ota bog'ni tomosha qilarkan, o'ychan edi.

Bir paytda daraxt shoxiga chumchuq qo'ndi. Ota o'g'lidani:

– Bu nima? – deb so'radi.

O'g'il boshini ko'tarib, chumchuqni ko'rdi, so'ng otasiga qarab:

– Chumchuq, – dedi va yana telefon bilan ovora bo'ldi.

Oradan ozgina vaqt o'tib, yana bir chumchuq kelib qo'ndi. Ota chumchuqqa ishora qilib, yana:

– Bu nima? – dedi. Yigitning ensasi qotdi:

– Chumchuq dedim-ku! – dedi jerkigannamo ohangda va telefondagi mashg'ulotini davom ettirdi. Biroz o'tmasdan boshqa bir chumchuq kelib qo'ndi. Ota:

– Bu nima? – dedi. O'g'il otasiga o'qday qaradi:

– Qanaqa odamsiz, dada, gapga tushunasizmi o'zi, yo'qmi?! Chumchuq dedim-ku, chu-um-chu-uq! Endi tushundingizmi? – deya baqirdi.

Ota o'g'liga termuldi, xo'rliki keldi. So'ng o'rnidan

“BU NIMA?”



turib, keta boshladi. O'g'il asabiylashdi:

– Qayoqa? O'tiring joyingizga! – deb baqirib berdi. Ota o'g'liga qarab:

– Sen o'tirib tur, men hozir chiqaman, – dedi-da, uyiga kirib ketdi. Xiyol vaqtdan keyin qaytib chiqdi.

Qo'lida bir daftar bor edi. U otaning kundaligi bo'lib, yoshligidan ayrim voqealarni yozib yurardi. Shu o'g'li uch yasharlighida, bir voqeani yozib qo'ygan

ekan. O'sha joyini varaqlab topib, o'g'liga uzatdi-da:

– O'qi, – dedi. O'g'il o'qishni boshladi... “Uch yashar o'g'lim bilan birga bog'da o'tirgan edik, daraxtga bir chumchuq kelib qo'ndi. O'g'lim mendan: “Dada, bu nima?” deb so'radi. Men: “Chumchuq”, dedim. Yana bitta chumchuq kelib qo'ndi. “Dada, bu nima?” deb yana so'radi. Men: “Chumchuq”, dedim. Uchinchi chumchuq daraxtga qo'nganida, o'g'lim savolini uchinchisi marta qaytardi. Men ham o'sha javobimni berdim. Shu bilan har chumchuq qo'nganida o'g'lim mendan so'rayverdi, men ham erinmay javob beraverdim. Har gal so'rganida o'g'limni erkalab, bag'rimga bosib, yuz va peshonalaridan o'pib qo'yardim. Sanab ko'rsam, o'g'lim mendan yigirma uch marta so'rabdi. Men ham erinmasdan yigirma uch marta javob beribman.”

Hikoya oxirlangani sari yigitning qo'li qaltirab borardi. Nihoyat, daftarni yopib, yoniga qo'ydi. Asta o'rnidan turib, otasini quchoqlab oldi va:

– Dadajon, meni kechiring! Men ahmoqlik qildim. Haddimdan oshdim. Kimligimni unutib qo'yibman. Ko'zimni ochdingiz. Meni kechiring, kechiring...” der edi.

HIKMATLAR

– Do'stni xo'rlash – gunoh. Umr yo'ldoshini xo'rlash – yuz hissa gunoh. Ota-onani xo'rlash – ming hissa gunoh. Go'dakni xo'rlash – cheksiz gunoh...

– Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang. Vaqt ko'pligi-yu, ish yo'qligidan qo'rqing. Odamni abgor qiladigan narsa – bekorchilik.

– Hatto, bulbul ham bola ochganidan keyin sayrashni bas qilib, polaponlariga yemish tashiydi.

O'tkir HOSHIMOV.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

URF-ODAT

To'y dabdabali o'tdi. Kelinchak bunday baxtni xayoliga ham keltirmagandi. Hayhotdek hovli joy, ko'p qavatli dang'illama uy, qo'sha-qo'sha mashinalar...

Endi to'ydan keyin oxirgi urf-odatlarini o'tkazishayotgandi. Qimmatbaho zeb-ziynatlarga burkangan baxtiyor kelinchak kelin salomni tugatdi. Uy xizmatchisining esa javobini berib yuborishdi...

Mastura Abduraim qizi.

NIMA
BO'LARKAN?

To'qson oltiga kirdim. Ko'zim xira, qulog'im eshitmaydi, oyoqlarimda darmon yo'q. Bilmadim, bir kuni qarisam, nima bo'larkanman?

Ne'mat Aminov.

KITOB O'QING, BOY BO'LASIZ!


Dunyoning boy-badavlat kishilari uchun kitob o'qish qanday ahamiyatga ega deb o'ylaysiz? 1200 nafar badavlat odamlar ustida o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, ularning barchasida kitob o'qish umumiy odat ekanligi aniqlangan.

Bill Geyts 1 yilda o'rtacha 50 ta kitob o'qiydi. Bu 1 haftada o'rtacha 1 kitob degani. Ilon Mask raketalarini qanday qurishni kitoblardan o'zi o'qib o'rganagan. U asos solgan SpaceX haqida bil-sangiz kerak.

Uorren Baffet kunining 80 foizini o'qishga bag'ishlaydi va kunlik o'rtacha 500 varaq o'qiydi. Mark Sukerberg har

2 haftada 1 yangi kitob o'qib tugatadi. Mark Kuban 1 kunda 3 soatni o'qishga bag'ishlaydi va 1 kitobni tugatish o'rtacha 5 soat vaqtini oladi.


Muvaffaqiyatli kishilar uchun kitob o'qish, bu - kunlik odatlarining ajralmas qismi. Siz ham kitob o'qishni kundalik odatga aylantiring.



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1946-yil 26-oktabr kuni korxonamizda juda katta voqea yuz bergan. Uning nima ekanligini bilasizmi?

1963-yil O'zbekiston metallurgiya zavodida nima qurilib, ishga tushirilgan edi?



Dunyodagi gazetalarning deyarli yarmi jahonning eng rivojlangan ikki davlatida chop etiladi. Bu qaysi davlatlar?

Amerikalik tarixchi olim Sarton XI asrni o'z asarida qanday ta'riflaydi?

Qaysi davlatdagi quyonlar soni Xitoyda-

gi odamlar sonidan ko'p.

O'zbekistonda televidenie birinchi ko'rsatuvini qachon namoyish qilgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savol-larning javoblari.

* G'arbda Alfraganus nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad al-Farg'oni.

* Italiyaning jahonga mashhur “Danieli” kompaniyasi.

* Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

* 2002 yilda Elektrda po'lat eritish sexida yiliga 750 ming tonna po'lat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan “DSP-100 UMK” po'lat eritish pechi va “Pech-kovsh” qurilmasini foydalanishga topshirilishi O'zbekistonda po'lat eritishdagi yangi bosqich bo'lgan.

* Tayvan orolida to'rt sonidan juda qo'rqishadi, chunki u mahalliy aholi

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

**Metallurg
Minbari**

Muharrir:

Ismadiyor MAMATQULOV

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Sahifalovchi:

Inom Xojimurodov

MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
“O'zmetkombinat”
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.